

O'RTA MAXSUS VA PROFESSIONAL TA'LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O'TKAZISH UCHUN MUSIQA NAZARIYASI FANIDAN MALAKA TEST SINOVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

I. Maqsad

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta'lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida Musiqa nazariyasi fani talabgorlarining bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo'llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me'yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko'nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

II. Me'yoriy asoslar

1.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi **"Maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o'tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"**gi 572-sonli Qarori.

III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari

Musiqa nazariyasi

1. Musiqiy ifoda vositalari. Musiqiy tizim. Ritm, metr, o'lchovlar;
2. Lad. Kvinta davrasi;
3. Interval. Xarakterli intervallar;
4. Akkordlar. Xalq musiqasining diatonik lادلari;
5. Musiqiy sintaksis. Melizmlar.

IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstuktlar

T/r	Mazmun sohalar	Konstruktlar	Ulushi (%)	Testlar soni
1	Musiqiy ifoda vositalari. Musiqiy tizim. Ritm, metr, o'lovlar.	Musiqqa san'at turlaridan biri sifatida, musiqiy ifoda vositalari (kuy, lad, ritm, garmoniqa, faktura)ning umumiy tavsifnomasi, musiqaning asosi va manbai – xalq qo'shiqchilik ijodiyoti, tovush – fizik hodisa sifatini, musiqqa va shovqinli tovushlarini, tovushlarning xususiyati, tabiiy tovushqatorligini, obertonlar, musiqaviy tizim haqida bilishi kerak.	15 %	6 ta
2	Lad. Kvinta davrasi.	Lad haqida umumiy tushuncha, tortilish va yechim eshitib aniqlash ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak.	15 %	6 ta
3	Interval. Xarakterli intervallar.	Intervallarning tasniflanishi, xromatik intervallarning yechilishini eshitib aniqlay olishni bilishi kerak.	20 %	8 ta
4	Akkordlar. Xalq musiqasining diatonik lادلari.	Akkordlarni turlari, aylanmalarini va yechilishi, xalq musiqasining diatonik lادلarni bilishi lozim. Eshitib aniqlash va fortepianoda chalishni bilishi kerak.	40 %	16 ta
5	Musiqiy sintaksis. Melizmlar.	Lad ichidagi xromatizmni, modulyatsiya va og'ishmalarni, eshitib aniqlash va fortepianoda chalishni bilishi kerak.	10 %	4 ta

V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	Bilish	Fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish	15%
2.	Qo'llash	O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta'limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish	42%
3.	Mulohaza qilish	Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog'liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish	43%

VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To'rtta variantdan bittasi to'g'ri bo'lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to'g'rilarini topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

VII. Baholash mezonlari va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to'g'ri javob 2 ball, noto'g'ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

VIII. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

IX. Inklyuziya va moslashtirish

Alohida ta'limga ehtiyoji bor talabgorlar uchun qo'shimcha 15 % vaqt beriladi. Shuningdek, topshiriqlarning berilish shakli va turi ham ularga mos va qulay shaklda taqdim etiladi.

Ko'rish sohasida imkoniyati cheklangan talabgorlar savollarni o'qib berishi uchun maxsus texnik yordamchi bilan kelishiga ruxsat etiladi, faqat savolning to'g'ri javobini aytishi mumkin emas.

X. Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. I.Akbarov. Musiqa lug'ati. "O'qituvchi", Toshkent, 1997.
2. O.Azimova "Garmoniya nazariy darsligi" Toshkent, 2001.
4. Музыкальная энциклопедия.
5. V.Vaxromyev. Muzikaning elementar nazariyasi. Toshkent, 1983 y.
6. G.A.Ibraximjanova, L.A.Urmanova, M.X.Xodjayeva, F.N.Xalilov "Musiqa elementar nazariyasi. Garmoniya" Toshkent 2017.